

“ARAB BAHORI” INQILOBI NATIJASIDA MISR ARAB RESPUBLIKASIDA IJTIMOIY-SIYOSIY HOLAT

G'ofurova O'g'iloy Mamatqul qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17379001>

Annotatsiya: Ushbu tezisda inqilob natijasida Misr Arab Respublikasida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bayon etilgan. Xususan, mamlakatning siyosiy tuzumi o'zgarishi, “islom urushi” ning avj olib ketishi va davlatning iqtisodiy o'sishining pasayib ketishi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Inqilob, Musulmon birodarlari, ijtimoiy vaziyat, turizm, dunyoviy boshqaruv, demokratik parlament

Misr Arab Respublikasi arab dunyosidagi eng yirik davlat, uning eng muhim siyosiy, intellektual va madaniy markazi bo'lib, aholining ochiqdan-ochiq demokratik o'zgarishlarga chanqoq mamlakat ekanligini ko'rsatib berdi. Mamlakatda uzoq vaqt davom etgan va hali mantiqiy xulosaga kelmagan voqealar mintaqada va dunyoda keng munosabatlariga sabab bo'ldi. Misrda ro'y bergan va kelajakda ro'y beradigan o'zgarishlar nafaqat mintaqadagi, balki butun dunyodagi ishlarning holatiga o'z ta'sirini ko'rsatishi tabiiy va bu yangi yo'llarni izlashga majbur qildi. Misr hukumatining islomiy elitasi bilan o'zaro hamkorlik olib borildi.

Mazkur noroziliklarda ijtimoiy tarmoqlarning roli katta bo'ldi. Masalan, H.Muborakning iste'fosini talab qilib ommaviy norozilik namoyishlarini keltirib chiqargan 2011 yil 25 yanvardagi Misrda umumiy ish tashlash va Nafrat kuniga bo'lgan da'vat Feysbukda joylashtirilgan, o'zini “6 aprel harakati” deb nomlagan tashkilot tomonidan qilindi. Inqilobdan keyin Misr hayotidagi ijtimoiy o'zgarishlar o'zining ko'p jihatlari bilan ajralib turadi.

“Arab bahori” bir qator Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika davlatlarida siyosiy-ijtimoiy o'zgarishlarga olib keldi. Xususan, Misrda deyarli o'ttiz yil boshqargan X.Muborak hokimiyati ag'darildi va mamlakat taraqqiyot yo'nalishi diniy va duyoviylik tarafdorlari kurashi natijasiga bog'liq bo'lib qoldi. Garchi g'alayonlar va undan keyingi davrda “Musulmon birodarlari” tashkilotining nufuzi o'sgan bo'lsada, Misr jamiyati dunyoviy rivojlanish yo'lini tanlashdi. Bundan tashqari “Arab bahori” Misrdagi ijtimoiy vaziyatning og'riqli jihatlari hal etilishi lozimligini ko'rsatib berdi.

Bundan tashqari, inqilob oqibatida butun arab dunyosini “islom urushi” qamrab oldi. Davlat to'ntarishlari yuz bergan Misr, Tunis, Liviya davlatlarida shubxasiz islomchilar yetakchi o'ringa chiqishdi. Ushbu mamlakatlarning nufuziga katta putur yetdi. Iqtisodiyotning tushishi, siyosiy beqarorlik, istiqboli noaniqligi bir paytlari mintaqada yetakchi bo'lgan Misr davlatini qayta tiklanishini qiyinlashtirdi.

“Arab bahori” natijasida Misr arab respublikasida turizm keskin pasayib ketdi. Neft va turizm eksportining pasayishi tufayli byudjet taqchilligi va milliy valyuta qadrsizlanishi oshdi. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, “arab bahori” dan keyin hech qanday iliqlik bo'lmagan, ammo “arab qishlari” keldi.

Misr prezidenti Husni Muborak 11-fevral 2011-yilda 18 kunlik namoyishlardan keyin 30 yillik prezidentligiga chek qo'yib, iste'foga chiqishga majbur bo'ldi. Misr, aytish mumkinki, kattagina qurbonlar evaziga dunyoviy boshqaruv tarziga qaytdi. Ommaviy noroziliklar qamrab olgan boshqa mamlakatlar bilan taqqoslaganda Misr “Arab bahori” voqealaridan eng kam yo'qotishlar bilan chiqdi. Bunga davlatning rivojlangan institutlari yordam berishdi, ular ma'lum bir hukmdor yoki rejimga bog'lanmagan holda mustaqil ravishda ishlashga qodir bo'lib,

jamiyatda konfessional yo'nalish bo'yicha bo'linishning yo'qligi va eng muhimi, o'zlarini siyosiy rejimlardan tashqarida vatanparvar kuch sifatida qurolli kuchlarning pozitsiyasi edi. Shunga qaramay, Misrda inqilobdan keyingi yillarda demokratik voqealar rivojlandi. Shunday qilib, 2011 yil oxiridagi birinchi demokratik parlament saylovlarida mandatlarning qariyb uchdan ikki qismi islom partiyalari - "Ozodlik va Adolat" ("Musulmon birodarlar" harakatining siyosiy qanoti) va salafiyalar partiyasi "Nur" tomonidan qabul qilindi. Biroq 2012 yil iyun oyida sud qarori bilan parlament tarqatib yuborildi. Xuddi shu oyda "Musulmon birodarlar" ning a'zosi Muhammad Mursiy Misr prezidenti etib saylandi. Shunday qilib, Mursi mamlakatning harbiysi bo'lmagan birinchi prezidenti bo'ldi. Shunga qaramasdan, inqilobdan besh yil o'tgach, Misr haqiqatan ham inqilobgacha bo'lgan holatiga qaytdi, shu bilan birga ulkan iqtisodiy yo'qotishlarga duch keldi, xususan turizmning pasayishi tufayli bu holat yuz berdi. Ammo, baribir o'z hududining yaxlitligi va davlat institutlarining barqarorligi saqlab qolindi.

References:

1. Muhammadsidiqov M.M. Arab davlatlarida demokratlashtirish jarayonlari: yutuqlar va muammolar // O'zbekistonda parlament institutining rivoji va istiqbollari: siyosiy, huquqiy va tashkiliy jihatlar: ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – T.: "ToshDSHI", 2010. – B.191.
2. Ҳишам Ш. Мубаррирот ал вилаят ал муттаҳидату ал амрикия фи мумарасат ат тадаххул фи шуун ад дахилия лиддувал // <http://www.dahsha.com/t48168.html>.
3. Cofman Wittes T. Learning to Live with the Islamist winter // Foreign Policy. 19 July 2012. // http://www.Foreignpolicy.com/articles/2012/07/19/learning_to_live_with_the_islamist_winter
4. "Report for Selected Countries and Subjects, World Economic Outlook Database. IMF. April 2008.: <http://www.Imf.org/internal/pubs/ft/weo/2008/01/weodata/weorept.asp>
5. Lunch M. The Arab Uprising: The Unfinished Revolutions of the New Middle East. –New York: Public Affairs. 2012.P.304
6. Krauthammer Ch. The Arab Spring of 2005 // The Seattle Times. 21 March 2005. // http://seattletimes.com/html/opinion/2002214060_Krauthammer21.Html